

INSON HUQUQLARI VA ERKINLIK LARI KAFOLATI.**Turdiboyev Sherzod Rahmonberdiyevich***O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**Farg'ona akademik litseyi o'qituvchisi***Turdiboyeva Munira Zokirjon qizi.**

Inson qadri ulug' ne'mat zero uni qadrlamoq fuqarolik jamiyatining asosidir.

Inson huquqlari - har bir insonning millati, yashash joyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat'i nazar, ajralmas huquqlaridir.

Barcha odamlar har qanday turdagi kamsitishlarni istisno qilgan holda, inson huquqlaridan bir xilda foydalanish huquqiga egadirlar. Ushbu huquqlar o'zaro bog'liq va ajralmasdir. Insonning umumbashariy huquqlari ko'pincha shartnomalar, xalqaro odat huquqi, huquqning umumiy prinsiplari va xalqaro huquqning boshqa manbalarida qonun ko'rinishida mustahkamlangan va kafolatlangan. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq har bir davlatga inson huquqlari va asosiy erkinliklarini rivojlantirish hamda himoya qilish bo'yicha turli "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" 1948 yilda qabul qilinishi bilan birinchi marotaba muhim ahamiyat kasb etgan va doimiy ravishda inson huquqlari sohasiga oid ko'plab xalqaro konventsionalar, deklaratsionalar va rezolyutsionalarda namoyon bo'lgan. Bundan asosiy maqsad fuqarolik jamiyatini shakllantirish va erkin fuqarolik muhitini yaratish va huquqiy jihatdan mustahkamlash.

Bunga misol tariqasida biz ham mamlakatimizning bosh qomusida, inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari to'g'risida bir qancha normalar yaratildi, jumladan har bir inson malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, erkin kasb tanlash, bepul ta'lim olish, erkin yashash huquqi zero yashash huquqi bu insonning eng oliy ne'matidir, unga daxl qilish eng og'ir jinoyatdir. Shaxs ulardan mahrum etilishi mumkin emas, faqat kamdan-kam hollarda va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bundan mustasno. Masalan, inson sud tartibida jinoyat sodir etishda aybdor deb topilsa, uning erkinlik huquqi cheklanishi mumkin.

Xalqimiz azaldan erksevar bo'lgan, beva-bechoralar, yetim-yesirlar, nochor va nogironlarga madad qo'lini cho'zishni insoniy burch hisoblagan.

Zardushtiylik muqaddas kitobi hisoblanagn – «Avesto»dayoq inson huquqlari eng oliy qadriyat sifatida belgilangan, uning ustuvorligi, insonlarning jamoa bo'lib yashash tarzi, shuningdek davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, jamoa hayoti bilan bog'liq masalalarni birgalikda hal etish tartibi qayd etilgan. "Avesto"dagi So'g'd hujjatlari esa o'sha davrning konstitutsiyasi hisoblanib ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib kelgan, xususan o'sha davr uchun mukammal bo'lgan huquq tizimi va oila-nikoh normalari amal qilganligini, huquqiy munosabatlar ishtirokchilari tarkibi, ularning huquq va majburiyatlari, shartnoma shartlari, shartnomaning bajarmaganlik

oqibatlari, sharnoma tuzish vaqti va joyi batafsil aks etgan “Temur tuzuklari”da esa “Saltanatning ishlarini qonun-qoida va intizomga solib, saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim” deb ta’kilagan Sohibqiron bobomiz Amir Temur. Umuman, inson huquqlari va erkinliklarining shakllanishi o’z tarixiga ega.

Asosiy Qonunimiz bo’lmish yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham xuddi shu kabi normalar bayon qilinganligini ko’rishimiz mumkun, jumladan insonning quyidagi shaxsiy huquq va erkinliklari mustahkamlab qo’yilgan:

- yashash huquqi (25-modda);
- shaxsiy sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish (26-modda);
- shaxsiy erkinlik va daxlsizlik huquqi (27-modda);
- shaxsiy hayot daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy hayotiga arashishdan, o’z sha’ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan himoyalaniş huquqi (31-modda);
- yozishmalar va telefonda so’zlashuvlar sirini oshkor qilmaslik huquqi (31-modda);
- uy-joy daxlsizligi huquqi (31-modda);
- o’zi istalgan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqi (33-modda);

Keyingi yillarda yurtimizda inson huquqlarini amalga oshirish, fuqarolik jamiyatimizni bunyod etish uchun yetarli imkoniyatlar hamda sharoitlar yaratildi va bu asosida yurtimizda davlatimiz rahbari Sh.M.Miromonovich ta’kidlaganlaridek endigi bosqich bu yurtimizda Uchinchi renessansbunyodkorlarini tarbiyalash va keng imkoniyatlarni yaratib berishdir. Zero bilimli, keng fikrlash qobilyaiga ega bo’lgan yosh avlod bunyodkorlik g’oyalari asosida shakllanib yurtimiz ravnaqi va kelajagi uchun tayanch bo’lin hizmat qilishadi shu asosda kelajagimizda inson huquqlarini poymol qilish yoki ularga turli xil usullarda hafv solish holatlari keskin ravishda kamayadi.

Bugun kelajak avlodlar oldidagi yuksak ma’suliyatni anglagan holda Konstitutsiya tamoyillari asosida amalga oshirilayotgan har bir islohot zahirida mustaqilligimizni mustahkamlash, aholi turmush farovonligini yuksaltirish, O’zbekistonni eng rivojlangan davlatlare qatoridan mustahkam o’rin egallashi kabi maqsadlar mujassamdir.